

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

NURMUHAMMAD ANDALUB – XORAZMLIK MASHHUR ADIB

Umida Zaripboyeva,

*Namangan davlat universiteti tarix yo‘nalishi
talabasi*

E-mail:umidazaripboyeva629@gmail.com

Tel.: (88) 202 05 20

***Annotatsiya.** Maqolada Xorazm diyorida yetishib chiqqan shoir va yozuvchi, bir qator lirik doston va she‘rlar muallifi, o‘zbek va turkman xalqlarining milliy namoyondasi hisoblangan Nurmuhammad Andalibning hayoti va asarlari haqida batafsil ma‘lumot beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** Xorazm, o‘zbek va turkman shoirlari, Nurmuhammad Andalib, “Bulbul”, Munis, Ogahiy, Bayoniy, bayoz, dostonnavis, “Zaynuralab”, “Layli va Majnun”, “Yusuf va Zulayho”, “Sa‘d Vaqqos”.*

Xorazm adabiy muhiti o‘zbek adabiyotining ajralmas bir qismini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Jo‘shqin Amudaryodan suv ichib, muqaddas va tabarruk Xorazm tuprog‘ida unib-o‘sgan, xalqimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabg‘uziy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Sakkokiy, Munis, Feruz, Ogahiy, Bayoniy va boshqa ko‘plab allomalar, shoir va mutafakkirlarning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan”¹.

O‘zbek va turkman xalqlari o‘rasidagi qardoshlik, adabiy-madaniy aloqalar juda qadimiy tarixga egadir. Ikki xalq o‘rtasidagi adabiy aloqalarimizning yaqinligiga guvoh bo‘luvchi o‘nlab dostonlar, xalq kitoblari borki, ulardan ayrimlarining dastavval qaysi xalq o‘rtasida paydo bo‘lganligini aniqlash qiyin. XVII – XIX asrlar mobaynida o‘zbek va turkman shoirlari tomonidan ko‘plab asarlar yaratildi, o‘lka ilm-fan, madaniy taraqqiyotga ulkan xissa qo‘shildi. Sobir Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom”, so‘ngroq ko‘hna Urganch va Vas (Toshovuz) tomonlarida yashagan Shohbandaning “Shoh Bahrom”, XVIII asr oxirlarida yashagan turkman shoirlari Shaydoyi yaratgan “Gul Sanobar”, Ma‘rufiy yaratgan “Yusufbek va Ahmadbek” dostonlari g‘oyaviy-badiiy xususiyatlariga ko‘ra, shu nomdagi o‘zbek xalq kitoblari nusxalariga juda yaqin. Bunday asarlar ko‘p. Ular turkman kitobxonlariga qanchalik estetik zavq, ma‘naviy oziq bag‘ishlasa, o‘zbek kitobxonlariga ham shunchalik zavq va ma‘naviy oziq beradi².

¹ Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – B. 241.

² Orzibekov Rahmonqul. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – B. 127.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Mustaqillik yillarida o‘zbek tili va adabiyoti faniga alohida e‘tibor berilmoqda. 2016-yil 13-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida” Farmoni muhim ahamiyatga ega bo‘ldi³.

Nurmuhammad Andalubning ismi, tug‘ilgan joyi va jayoti haqidagi ma‘lumotlar ancha kam hisoblanadi. Bizga u haqidagi ma‘lumotlar uning asarlari va boshqa manbalar orqali topishimiz mumkin. Uning ismi Nurmuhammad taxallusi Andalib (Bulbul). Ko‘hna Urganchning Qoramozi qishlog‘ida tug‘ilgan. Xiva va Buxoro madrasalarida ta‘lim olgan. Munis va Ogahiyning “Firdavs – ul iqbol”, Bayoniyning “Xorazm shohiy” asarlarida u haqida ma‘lumotlar mavjud⁴.

Nurmuhammad Andalub Xivada Shohg‘ozixon hukmronligi davrida (1765-1767) “Yusuf va Zulayho” dostonini yozgan bo‘lib, o‘sha paytda 55 yoshdagi haqida ma‘lumot beradi. Demak u taxminan 1710 – 1711-yillarda tug‘ilgan. 1770-yilda vafot etgan.

Andalib ijodida Navoiy, Fuzuliy, Mashrab an‘analarining ta‘siri va davomiyligini ko‘ramiz. Ulardagi g‘oyalar mutanosibligini, timsollar uyg‘unligi va dunyoqarash hamohangligini his qilamiz. Andalibning lirik she‘rlari bizgacha 20 ga yaqin to‘plam va bayozlar tarkibida yetib kelgan. Devoni haqida ma‘lumot yo‘q. Uni qalamiga mansub bayozlarning eng qadimiylari 1198 raqamlisi va 6973 raqamlisidir. Ushbu bayozlarning ikkalasida ham bir xil – shoirning 6 ta muxammasi kiritilgan. Adibning bizga bor yo‘g‘i 35 ta she‘ri ma‘lum. Shundan 23 tasi taxmis, 3 tasi g‘azal, 5 ta shoirning o‘zi yozgan mustaqil muxammas, 1 tasi musamma , 1 tasi murabba , 1 tasi muvashshax. Ularning jami 1200 misraga yaqin.

Nurmuhammad Andalub epic yo‘nalishda ham asarlar yaratgan. “Zaynuralab”, “Layli va Majnun”, “Yusuf va Zulayho”, “Sa‘d Vaqqos” dostonlari shular jumlasidandir. Andalib tarjimon sifatida ham o‘z salohiyatini namoyon eta olgan. U “Mirza Hamdam” dostonini ham forschadan turkiychaga o‘g‘irgan.

Andalub ayniqsa, dostonnavis sifatida shuhrat qozondi. Mumtoz, ayniqsa, uning “Yusuf va Zulayho”, “Layli va Majnun” va “Zaybularab” dostonlari muhim. Shoir ularda xalqning sevimli timsollari taqdiri bilan bog‘liq an‘anaviy syujetlarni asos qilib oladi. Yozma adabiyotda ham, xalq og‘zaki ijodida ham qayta-qayta murojat etilgan mavzularga Andalib yangicha ruhiy talqinlar, ijodiy yondashilgan timsollar tizimi asosida yangi hayot bag‘ishaydi. Uchala doston ham nasr va nazm shaklida yaratilgan. Andalib dostonchiligining o‘ziga xosligi shundaki, u shakl jihatdan xalq dostonchiligiga juda yaqin. Jumladan, yozma dostonlar, asosan nazmda

³ Nasimxon Rahmonov. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017.

⁴ <https://uz.wikipedia.org>

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

yaratilgan. Har bir bobda qisqa nasriy mundarija berilgan. Ammo Andalib dostonlarida nasr miqdori va vazifasi ortgan. Badiiy tasvirda nazm bilan nasr baravar ishtirok etgan. Nasr va nazmning o‘rin almashib turishi, o‘quvchi uchun doston syujetining aniq yetkazilishini, ruhiy holatlarni izohlash, sharhlab borilishini ta‘minlaydi⁵. Bu dostonlar XVIII – XIX asrlar davomida qayta-qayta ko‘chirilgan, chop etilgan. Birgina “Yusuf va Zulayho” dostonining o‘zi 1904 – 1912-yillari Kogon, Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlarida 6 marta nashr qilingan.

Nurmuhammad Andalub she‘riyat bobida Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, Boborahim Mashrab va boshqalarning merosini qunt bilan o‘rganib, ularning an‘analarini davom ettirgan. Uning taxmislari orasida Jomiy, Vafoiy va Habib g‘azallariga bog‘langan tazmin muxammaslar ham bor. Andalib lirikasiga mansub she‘rlarning bizgacha yetib kelgan namunalaridan anchasida xalq she‘riyatining ta‘siri kuchlidir.

Andalib lirik she‘rlari tarkibida shaxsning charxi bemuruvvatdan, taqdirdan nolish, og‘ir hayot qiyinchiliklari tufayli ko‘ngil hazing bo‘lib, benavo – bechora ahvoliga tushib qolganligidan faryoq chekish ohanglari uchrab qoladi. Bunday she‘rlari xasbihollik xususiyatiga ega. Ularni shoir qismatining badiiy ifodasi deyish mumkin.

Ma‘lumki, Hazrati Yusuf Alayhissalom taqdiri bilan bog‘liq sarguzashtlarning asosi “Qur‘on”ga borib tutashadi. Kalomullohdagi Yusuf surasi asosida XX asrgacha ko‘p asarlar maydonga keldi. Andalibning “Yusuf va Zulayho” dostonining yaratilish asosi ham shu bilan bog‘liq. Muallif asarda uning yaratilish tarixi, yozilish sabablariga to‘xtaladi. Uning e‘tiroficha, doston turkiygo‘y qavmlar ehtiyojini inobatga olib yaratilgan.

Andalibning turkiy devoni va bir qancha dostonlari bizgacha yetib kelgan: “Zaynul-arab”, “Yusuf va Zulayho”, “Layi va Majnun” “O‘g‘uznoma” va boshqalar. Andalib asarlari O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institute jamg‘armasida 1392, 1169, 1198, 1387, 7054, 299, 6759, 1103, 6973, 6998, 1155, 1188, 6993, 1918 raqamlari ostida saqlanadi⁶.

Andalib ijodiga munosabatda uni turkman shoiri degan qarash ham mavjud bo‘lib, adib asarlari Turkmanistonda ham mashhur. Uning ijodi X.Ko‘r o‘g‘li, V.Abdullayev, B.Axundov, A.Ulug‘berdiyev, G.Nazarov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Qaysi xalq shoiri bo‘lishidan qat‘i nazar uning asarlari bizga qadar yetib kelib Xorazm va turkman adabiy muhitining shakllanishida asosiy ro‘l o‘ynagan.

⁵ Jumaxo‘jayeva Nusratulla, Adizova Iqboloy. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020. – B. 410.

⁶ <https://www.ziyouz.com>

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

O'zbek va turkman xalqlari azal-azaldan yaqin do'st, ahil qo'shni, strategik hamkor sifatida mushtarak maqsadlar bilan yashab kelgan. Shu sababli, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning ildizi uzoq tarixga borib taqaladi va o'zaro hurmat, ishonch asosiga qurilgan. Mustaqillik yillarida O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi strategik hamkorlikning huquqiy asosi sifatida qator tarixiy hujjatlar imzolandi. Do'stona munosabatlarni mustahkamlash va hamkorlikni rivojlantirish, o'zaro yordamni ayamaslik mazmunidagi 1996-yil 16-yanvar', 2004-yil 19-noyabr' va 2007-yil 18-oktyabrdagi va so'nggi yillardagi kelishuv hujjatlari – shartnomalar shular jumlasidandir⁷.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 241.
2. Orzibekov Rahmonqul. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006 – B. 127.
3. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2017.
4. <https://uz.wikipwdia.org>
5. Jumaxo'jayev N., Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: “Innovatsiya – Ziyo”, 2020. – B. 410.
6. <https://www.ziyouz.com>
7. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston--turkmaniston-dostona-va-ahil-qoshnichilik-munosabatlari-rivojlanmoqda>

⁷ <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston--turkmaniston-dostona-va-ahil-qoshnichilik-munosabatlari-rivojlanmoqda>